

## KO'KPATAS OLTIN KONIDAGI MA'DAN TANALARINING STRUKTURAVIY- MORFOLOGIK TIPIZATSIYASI VA EKSPLOATATSION RAZVEDKA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

**Dilmurodov G'olibbek Sobirjon o'g'li**

Geologiya fanlari universiteti,

Mineral resurslar geologiyasi kafedrası magistranti

Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: [golibdilmurodov.uz@gmail.com](mailto:golibdilmurodov.uz@gmail.com)

**Kushnazorov Ibrahim Saidqul o'g'li**

Geologiya fanlari universiteti,

“Konchilik ishi va texnologiyalar” kafedrası katta o'qituvchisi,

Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20340080>

**Annotatsiya (o'zbek).** Ushbu tezisdá Ko'kpatas oltin konining (Markaziy Qizilqum, O'zbekiston) ma'dan tanalari A.V.Korolyov va P.A.Shextman (1965) tasniflashi asosida strukturaviy-morfologik tipizatsiya qilingan. Barcha sanoatga yaroqli ma'dan tanalari kesuvchi (24%) va murakkab (76%) ikkita guruhga, murakkab guruh esa beshta tipga ajratildi. Ma'danlashuv joylashuvini nazorat qiluvchi asosiy tektonik omillar, razvedka va ekspluatatsiya ma'lumotlarining qiyosiy tahlili hamda razvedka uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Ko'kpatas, oltin koni, strukturaviy-morfologik tipizatsiya, ekspluatatsion razvedka, ma'dan tanasi, zaxira tasdiqlanmasligi, Markaziy Qizilqum, razvedka uslubiyoti.

**Аннотация (рус).** В данном тезисе проведена структурно-морфологическая типизация рудных тел золоторудного месторождения Кокпатас (Центральные Кызылкумы, Узбекистан) на основе классификации А.В.Королёва и П.А.Шехтмана (1965). Все промышленные рудные тела разделены на две группы – секущие (24%) и сложные (76%), последняя подразделена на пять типов. Выявлены основные тектонические факторы контроля оруденения, проведён сравнительный анализ разведочных и эксплуатационных данных, разработаны практические рекомендации по совершенствованию методики разведки.

**Ключевые слова:** Кокпатас, золоторудное месторождение, структурно-морфологическая типизация, эксплуатационная разведка, рудное тело, несоответствие запасов, Центральные Кызылкумы, методика разведки.

**Abstract (English).** This thesis presents a structural-morphological typification of ore bodies at the Kokpatas gold deposit (Central Kyzylkum, Uzbekistan) based on the Korolyov-Shekhtman (1965) classification. All industrial ore bodies are divided into two groups – cross-cutting (24%) and complex (76%); the latter is subdivided into five types. The principal tectonic controls on mineralisation are identified, a comparative analysis of exploration and production data is conducted, and practical recommendations for improving the exploration methodology are developed.

**Keywords:** Kokpatas, gold deposit, structural-morphological typification, operational exploration, ore body, reserve discrepancy, Central Kyzylkum, exploration methodology.

Markaziy Qizilqum hududida joylashgan Ko'kpatas oltin koni murakkab geologik tuzilishi va ma'dan tanalarining yuqori fazoviy o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – konning ma'dan tanalari strukturaviy-morfologik tipizatsiyasini miqdoriy parametrlar asosida chuqur asoslab berish va olingan natijalardan ekspluatatsion razvedka uslubiyotini takomillashtirish yo'lida foydalanishdan iborat.

Tadqiqotda A.V.Korolyov va P.A.Shextman (1965) tasniflash tizimi metodologik asos sifatida qabul qilinib, konning barcha sanoatga yaroqli ma'dan tanalari ikkita yirik strukturaviy-morfologik guruhga ajratildi: *kesuvchi* (tomir va linzasimon shakl, zaxira ulushi – 24%) va *murakkab* (qatlamsimon, lentasimon va kombinatsiyalashgan shakl, zaxira ulushi – 76%). Murakkab guruh ichida beshta alohida tip aniqlandi:

- I tip – uzilma zonasi bilan aniq kontaktga ega ma'dan tanalari (zaxira ulushi 26,8%; o'rtacha cho'zilganlik 1600 m; Kr = 0,67; oltin tarkibi o'rtacha 3,6 g/t);

- II tip – yirik nadvig ekranli tanalar (22,2%; 580 m; Kr = 0,79; 2,3 g/t);

- III tip – parallel uzilmalar orasidagi ikki pachka kontakti bilan nazoratlanuvchilar (10,4%; 300 m; Kr = 0,67; 3,4 g/t);

- IV tip – ostida uzilmalar mavjud bo'lgan ikki pachka kontaktidagilar (11,0%; 40–720 m; Kr = 0,74; 3,4 g/t);

- V tip – murakkab uzilmalar kombinatsiyasida shakllangan kichik tanalar (5,6%; 205 m; Kr = 0,74; 2,8 g/t).

Ma'danlashuv joylashuvini nazorat qiluvchi asosiy tektonik omil sifatida Ko'kpatas chuqurlik uzilmasi va Karashax-Aytim shimoliy-g'arbiy uzilmalar mintaqasining kesishuv zonasi aniqlandi. Konning barcha sanoatga yaroqli ma'dan tanalarining **96 foizi** Karashax va Tubabergen svitalari tarkibida, **77,7 foizi** esa sharqiy-shimoliy-sharqiy va kenglikdagi uzilmalar tomonidan nazorat qilinishi statistik tahlil asosida tasdiqlandi.

Razvedka va ekspluatatsiya ma'lumotlarining qiyosiy tahlili (Karashax-II-1, Shirotniy-2, Zapadniy-II-1, Zapadniy-II-2, Zapadniy-I-3 uchastkalari misolida) shuni ko'rsatdiki, DZK tomonidan tasdiqlangan zaxiralarning ekspluatatsiya jarayonida tasdiqlanmasligi uch guruh sabablarga bog'liq: **geologik sabablar** (ma'dan tanasi morfologiyasini noto'g'ri tasavvur etish) – 45%; **uslubiy sabablar** (konditsiya talablariga mos bo'lmagan oraliqlarni zaxira chegarasiga kiritish) – 35%; **texnik sabablar** (razvedka tarmog'ining ma'dan tanasi tipiga muvofiq kelmasligi) – 20%.

Tadqiqot natijalari asosida murakkab geologik tuzilishli oltin konlari uchun razvedka to'rini, zaxira hisoblash chegaralarini va texnik vositalarni ma'dan tanalarining strukturaviy-morfologik tipiga muvofiq differentsial tanlash zarurligi ilmiy asoslab berildi. Ushbu yondashuv Ko'kpatas koniga geologik tuzilishi bo'yicha o'xshash bo'lgan Bo'ztov, Doug'iztov va Ajbug'iz konlarida ham qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5754-sonli Farmoni «2019–2021-yillarda geologiya tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida». — Toshkent, 2019.
2. Королёв А.В., Шехтман П.А. Структурные условия размещения послемагматических руд. – Москва: «Недра», 1965. — 348 с.
3. Каждан А.Б. Поиски и разведка месторождений полезных ископаемых: производство геологоразведочных работ. — Москва: «Недра», 1985. – 326 с.

4. Исаков М.У., Зималина В.Я., Мецзяков Е.П. и др. Сопоставление данных разведки и эксплуатации месторождения Кокпатас. Отчёт по теме №530. – Ташкент: МРИ, 2001. – 244 с.
5. Шехтман П.А. Структурно-тектонические особенности Кокпатасского рудного поля и детальный прогноз: дисс. ... канд. – Ташкент: САИГИМС, 1973. — 186 с.
6. Алексашечкин В.А., Паздзерский В.А. и др. Отчёт о результатах детальной разведки III очереди (1980–1987 гг.). – Ташкент: СГУ НГМК, 1987 (фонд).